



ARAB MULOQOT MADANIYATIDA MINNATDORCHILIKNING IFODALANISHI

Ilyosova Munisa Shuxrat qizi

O'zbekiston Xalqaro Islomshunoslik Akademiyasi
2-kurs magistranti

E-mail: bunnyovabunny@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19842799>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 24-aprel 2026 yil

Ma'qullandi: 26-aprel 2026 yil

Nashr qilindi: 28-aprel 2026 yil

KEYWORDS

Nutqiy etiket va muloqot madaniyati qoidalariga ko'ra, minnatdorchilik bildirish faqat e'tirofga loyiq bo'lgan ulkan va ko'zga ko'rinarli amallar bilan cheklanib qolmasligi lozim.

ABSTRACT

Tilda suhbatlashish davomida vujudga keladigan nutqiy vaziyatlardan yana biri bu biror bir shaxs tomonidan suhbatdoshiga moddiy yoki ma'naviy yordam ko'rsatilganda, chiroyli va iltifotli so'zlar bilan murojaat qilinganda unga javob sifatida minnatdorchiligini izhor qilishidir. Bu nutqiy vaziyat har bir til egasining hayoti davomida juda tez-tez qo'llanilib turadigan nutqiy vaziyat hisoblanadi. Bunday holat yuzaga kelgan vaqtda albatta barcha nutq egalari o'z lingvomadaniy xususiyatlarini inobatga olgan holatda zamon va makonga mos minnatdorchilikka oid lingvokulturologik etiketlar bilan javob beriladi.

Tilda suhbatlashish davomida vujudga keladigan nutqiy vaziyatlardan yana biri bu biror bir shaxs tomonidan suhbatdoshiga moddiy yoki ma'naviy yordam ko'rsatilganda, chiroyli va iltifotli so'zlar bilan murojaat qilinganda unga javob sifatida minnatdorchiligini izhor qilishidir. Bu nutqiy vaziyat har bir til egasining hayoti davomida juda tez-tez qo'llanilib turadigan nutqiy vaziyat hisoblanadi. Bunday holat yuzaga kelgan vaqtda albatta barcha nutq egalari o'z lingvomadaniy xususiyatlarini inobatga olgan holatda zamon va makonga mos minnatdorchilikka oid lingvokulturologik etiketlar bilan javob beriladi.

Nutqiy etiket va muloqot madaniyati qoidalariga ko'ra, minnatdorchilik bildirish faqat e'tirofga loyiq bo'lgan ulkan va ko'zga ko'rinarli amallar bilan cheklanib qolmasligi lozim. Zero, kundalik hayotda tashqi kuzatuvchi uchun oddiy, sezilarsiz yoki ahamiyatsiz bo'lib tuyulgan, biroq aslida minnatdorchilikka munosib bo'lgan ko'plab xatti-harakatlar mavjuddir. Bunday amallarga e'tiborsiz bo'lish yoki ularning qiymatini past baholash etiket qoidalariga zid hisoblanadi.¹ Ba'zan bitta so'zning o'zi katta o'zgarishlar qilishga qodir bo'ladi. Ayniqsa, amalga oshirilgan sa'y-harakatlar uchun bildirilgan minnatdorchilik va e'tirof so'zi ijobiy energiya manbai bo'lib, insonni yanada ko'proq fidokorlik va samarali faoliyatga undaydi. Minnatdorchilik oddiy xushomad emas, balki maqsad sari olib borilgan mehnat, bedor tunlar va qat'iyat tarixini o'zida mujassam etgan chuqur e'tirofdir.

Minnatdorchilikni ifoda etishni tanlanganida, nafaqat muayyan shaxsni e'zozlanadi, balki ish muhiti yoki kundalik hayotda hurmat va sadoqat madaniyatini qaror toptiradi. Har qanday

¹ محمد بدیر الجلب. الاتیکیت الإسلامی و بناء الشخصية الاصلية للمسلم - دار ثراث للنشر الإلكتروني، القاهرة، ۲۰۲۱م. - ۲۹ص.

madaniyatli inson o'zi va atrofida qilgan hurmat qilgan holatda doimiy suhbat davomida minnatdorlik hissiyatini bildirish uchun bir qancha tana imo-ishoralari hamda minnatdorchilik nutqiy etiketlaridan foydalanadi.² Minnatdorchilik xabari samimiy tarzda yetib borishi va chuqur ta'sir qoldirishi uchun u puxta o'ylangan holda tuzilishi hamda uni mazmunan boyituvchi muhim unsurlarni o'z ichiga olishi lozim. Quyida bunday nutqni samarali va ilhomlantiruvchi qiladigan asosiy jihatlar keltiriladi: 1. Iliq kirish qismi, nutqni dastlabki lahzalardan oq minnatdorlik tuyg'ularini ifodalovchi samimiy murojaat bilan boshlash zarur. 2. Minnatdorchilik sababini aniq ko'rsatish, rahmat bildirishga sabab bo'lgan holat yoki sa'y-harakatni ochiq va ravshan ifodalash muhim. 3. Ijobiy ta'sirni yoritish, mazkur sa'y-harakat natijasida yuzaga kelgan ijobiy samaralarni bayon etish lozim. 4. Samimiy tilak yoki duo, nutqqa insoniylik va hissiylik baxsh etish maqsadida ezgu tilak yoki duo kiritish tavsiya etiladi. 5. Muloyim xulosa qismi, nutqni minnatdorchilikni yana bir bor tasdiqlovchi iliq so'zlar bilan yakunlash lozim.³ Mos uslubni tanlash, minnatdorchilikni bildirish uchun eng maqbul vaqtni aniqlash hamda e'tiborga molik tafsilotlarni qayd etish rahmat so'zining ta'sirchanligini yanada kuchaytiradi. Minnatdorchilikni ifodalashdan tortinmaslik lozim, zero bitta so'zning o'zi ham muhim o'zgarishlar yasash, hurmat, sadoqat va chin e'tirofga asoslangan ish muhiti yoki shaxsiy munosabatlarni shakllantirishga qodirdir.

Har bir davlat va millatlar orasida bu etiket turlicha bo'lib, xususan arab millatida ham minnatdorchilik bildirishning bir qancha qoidalari, so'z va maxsus iboralari mavjud. Aslida arab tilida "rahmat" aytishning eng keng tarqalgan shakli – شُكْرًا (shukran) – rahmat so'zidir. ⁴ Bu so'z qisqa, sodda, samimiy va arab dunyosining barcha hududlarida qiyinchiliksiz tushuniladi. Ammo minnatdorchilikni bildirish uchun faqatgina bu so'z bilan arablar cheklanib qolmaydi. Minnatdorchilik bildirishda qo'shimcha ta'sir kuchini ko'paytirish maqsadida quyidagi shakllari ham keng qo'llaniladi:

1. شُكْرًا جَزِيلًا (Shukran jazilan) – Katta rahmat / juda katta rahmat (rasmiy va yumshoq shakli)
2. أَلْفُ شُكْرٍ (Alf shukr) – Ming rahmat (iliq, samimiy va jo'shqin shakli)
3. مُمْتَنٌّ لَكَ / مُمْتَنَّةٌ لَكَ (Mumtanun laka / mumtannatun laki) – Sizdan minnatdorman (adabiy, hissiy ifoda shakli)⁵
4. أَشْكُرُكَ مِنْ قَلْبِي (Ashkuruka min qalbi) – Yuragimdan rahmat aytaman / Chin dildan rahmat (samimiy, yurakdan chiqqan shakli)
5. بَارَكَ اللَّهُ فِيكَ (Barakallahu fiyk) – Alloh sizga baraka ato etsin (islomiy, duoli ifoda shakli)
6. جَزَاكَ اللَّهُ خَيْرًا (Jazakallahu xoyron) – Alloh sizni yaxshilik bilan mukofotlasin (diniy, chuqur ma'noli shakli)
7. يُعْطِيكَ الْعَاقِبَةَ (Yu'tika al-afiya) – Alloh sizga sog'liq bersin (Kundalik nutq amaliyotida mustahkam o'rin egallagan shakli)
8. يُسَلِّمُوا أَيْدِيَكُمْ (Yusallimu aydik) – Qo'ling dard ko'rmasin (Kimdir o'z qo'li bilan taom tayyorlab tortiq qilganda qo'llaniladigan shakli)
9. تَعَبْنَاكَ (Ta'banak) – Sizni ovora qildim (Muloyimlik va uzr ohangida ishlatiladi, ayniqsa biror kishidan ko'p iltimos qilganda yoki vaqtini olganda qo'llaniladigan shakli)

² عبد الله عبد الرحيم العبادي. من الأدب والاخلاق الإسلامي. القاهرة، ١٩٨٠م. - ٥٤ ص.

³ <https://www.qoyod.com/arab>

⁴ <https://iqranetwork.com/blog/thank-you-in-arabic/>

⁵ <https://iqranetwork.com/blog/thank-you-in-arabic/>

10. مشكورين / مشكورة / مشكور (Mashkur/mashkurotun/ mashkuriyn) – Minnatdorman (Rasmiy muloqot kontekstlariga xos bo'lib, xususan davlat idoralari, huquqni muhofaza qilish organlari, sud muassasalari hamda vazirliklarda qo'llaniladigan shakli)

11. الله يبييض وجهك / الله يبييض وجهك / الله يبييض وجهك (Alloh yubayyid vajhak) – Alloh sizning yuzingizni poklasin (Kimdir noqulay vaziyatdan qutqarganida yoki muammoni muvaffaqiyatli hal qilganida, chuqur minnatdorchilik bildirish shakli)

12. الله يرضى عليك / الله يرضى عليك / الله يرضى عليك (Alloh yardo alayka) – Alloh sizdan rozi bo'lsin (minnatdorchilik, hurmat va ijobiy niyat shakli)

13. ممنونك / ممنونك / ممنونك (Mamnunak) – Sizdan minnatdorman (Katta yordam yoki muhim iltimos bajarilgandan so'ng ishlatiladi va kelajakda shu yordamga javob qaytarishga tayyor ekanlikni bildiradigan shakli)

14. الله يسعدك / الله يسعدك / الله يسعدك (Alloh yas'adak) – Alloh sizni baxtli qilsin (Qisqa va samimiy duo bo'lib, baxt va xursandlik tilash maqsadida ishlatiladigan shakli)⁶

Yuqorida keltirilgan nutqiy etiketlar arab millati o'rtasida minnatdorchilik, tashakkur va mamnunlikni ifoda etishda oddiygina rahmat so'zi bilan cheklanib qolmasdan balki bir qancha turdagi qo'shimcha ta'sirni ko'paytiruvchi so'z birikmalari, iboralar va duo ko'rinishidagi ifodalarni qo'shgan holatda minnatdorchilikni ifodalaydilar.⁷

Hozirgi kun ommaviy axborot vositalarida hamda dunyo bo'ylab yetti yoshdan yetmish yoshgacha bo'lgan insonlar orasida keng foydalanilayotgan mobil ilovalarda odamlar o'z minnatdorchiligini elektron, matnli, videoli, ovozli xabarlarida yoki shaxsiy profillarida tez, oson, uzun va adabiy ifodalarga boy bo'lgan tashakkurlarini izhor qilib butun dunyo ommasiga taqdim qilish, yoyish va tarqatish ommalashgan. Arab lingvokulturologiyasini tadqiq qilinganda ham yuqorida sanab o'tilingan ko'rinishdagi minnatdorchilikning xabarlarini zamonaviy shakllari ham keng ommalashganini ko'rish mumkin. Quyida shu arab lingvomadaniyatida qo'llanilgan minnatdorchilik nutqiy etiketlarini keng yoyilganlari keltirilib o'tiladi:

1. شكرًا لكل لحظة كنت فيها سند وداعم لي. (Shukron likulli lahzotin kunta fiyha sanad va da'im li) – Menga tayanch va qo'llab-quvvatlashda bo'lgan har bir lahzang uchun rahmat.

2. شكرًا لمن كان أثره خير في حياتي دون أن يشعر. (Shukron liman kana asaruhu xoyr fi hayati duna an yash'ur) – O'zi sezmaganda holda hayotimda ijobiy ta'sir ko'rsatgan kishilarga rahmat.

3. شكرًا لكل يد امتدت بالخير، ولكل قلب قدم حب بلا مقابل. (Shukron likulli yad imtaddat bilxoyr, va likulli qolb qoddama hub bila muqobil) – Yaxshilik bilan cho'zilgan har bir qo'lga va muqobilsiz sevgi bergan har bir qalbga rahmat.

4. شكرًا لكل كلمة طيبة رفعت معنوياتي في وقت ضعفي. (Shukron likulli kalimatun toyyiba rofa't ma'naviyati fi vaqti do'fiy) – Zaiflik paytlarimda ruhiy ko'tarinkilik bergan har bir yaxshi so'z uchun rahmat.

5. شكرًا لكل من كان وجوده نعمة في طريقي. (Shukron likulli man kana vujuduhu ne'matun fi toriqiy) – Yo'limda mavjudligi ne'mat bo'lgan har bir kishiga rahmat.

6. شكرًا لكم على كل ما قدمتموه من جهد وإخلاص. (Shukron lakum a'la kulli ma qoddamtumuhi min juhadin va ixlasin) – Sizning ko'rsatgan mehnatingiz va samimiyatingiz uchun rahmat.

⁶ <https://shababeekcenter.com/podcast/expressing-gratitude-in-arabic-alternatives-to-shukran>

7. عملكم المتقن وجهدكم المتواصل يستحق كل التقدير. (Amalukum mutqonun va juhudukum mutavasil yastahiqqu kullut taqdiyr) – Sizning mukammal ishingiz va tinimsiz mehnatingiz to'liq qadrlanishga loyiq.

8. نشكر لكم عطاؤكم المستمر وإخلاصكم في العمل (Nashkuru lakum a'toukum mustamir va ixlasukum fil amal) – Sizning uzluksiz hissangiz va ishdagi sadoqatingiz uchun minnatdorchilik bildiramiz.

9. نتقدم لكم بخالص الشكر والتقدير على تعاونكم المثمر (Nutaqoddimu lakum bixolis ashshukr vat taqdiyr a'la ta'avunikum al-musmar) – Samarali hamkorligingiz uchun chuqur minnatdorchilik va e'tirofimizni bildiramiz.

10. كل الشكر والتقدير لجهودكم المبذولة ودعمكم المتواصل (Kullu shukr vat taqdiyr lijuhudikumul mabzula va da'mukumul mutavasil) – Sarflangan mehnatingiz va uzluksiz qo'llab-quvvatlaganingiz uchun barcha minnatdorchilik va e'tirofimiz sizga.⁸

Umuman olganda, arab nutqiy etiketida minnatdorchilik iboralari kontekstga mos, jins va yoshga qarab, diniy va rasmiy jihatlarni hisobga olgan holda ishlatiladi. Ular shaxslar o'rtasidagi ijtimoiy bog'liqlikni mustahkamlash, hurmatni oshirish, samimiylikni ifodalash va hissiy aloqani kuchaytirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, minnatdorchilik iboralari nafaqat ijobiy muloqotni, balki madaniy qadriyatlarni, diniy e'tiqodlarni va shaxsiy munosabatlarni uyg'unlashtiruvchi vosita sifatida muhim rol o'ynaydi. Natijada, arab tilidagi minnatdorchilik iboralari kundalik hayot va rasmiy muloqot, shaxsiy va professional kontekstlarda keng qo'llanilib, madaniyatning ajralmas qismi hisoblanadi. Ular tilning pragmatik funksiyasini aks ettiradi va nutqiy etiket orqali ijtimoiy hurmat, samimiylik va qadrlashni uzluksiz ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. محمد بدير الجلب. الاتيكيت الإسلامي و بناء الشخصية الأصلية للمسلم - دار ثراث للنشر الإلكتروني، ٢٠٢١ م. - ٩٢ ص
2. عبد الله عبد الرحيم العبادي. من الأداب والاحلاق الإسلامي. القاهرة، ١٩٨٠ م. - ٥٤ ص
3. <https://www.qoyod.com/arab>
4. <https://iqrانetwork.com/blog/thank-you-in-arabic/>
5. <https://iqrانetwork.com/blog/thank-you-in-arabic>
6. <https://shababeekcenter.com/podcast/expressing-gratitude-in-arabic> alternatives-to-shukran
7. <https://www.almawkib.net>

⁸ <https://www.almawkib.net>